

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI 4 KURS TALABASI**

ISAMOV ZAYNIDDINNING

REFERAT

**MAVZU: XULQ-ATVOR VA ODATNI SHAKLLANTIRISH
SHAXSNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA**

**Ilmiy rahbar:
Psixologiya kafedrası o`qituvchisi Olimov.L**

Buxoro – 2015

**MAVZU: XULQ-ATVOR VA ODATNI SHAKLLANTIRISH SHAXSNI
TARBIYALASHNING ASOSIY YO‘NALISHI SIFATIDA**

R E J A:

KIRISH

**I-BOB. SHAXSNI TARBIYALASHNING ASOSIY
YO‘NALISHLARINI O‘RGANISH - IJTIMOY PSIXOLOGIK
MUAMMO SIFATIDA.**

1.1. Ilmiy adabiyotlarda shaxs va uning psixologik xususiyatlari muammosining yoritilishi.

1.1. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va psixologik shart-sharoitlar

**II-BOB. SHAXSNI TARBIYALASHDA XULQ-ATVOR VA
ODATNI SHAKLLANTIRISH PSIXODIAGNOSTIKASI VA
PSIXOKORREKTSIYASI**

2.1 . Xulq -atvor va odatni shakllantirishga va agressiyaga moyillikni kamaytirishga mo‘ljallangan psixokorreksion dastur.

2.2. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar tahlili.

XULOSA

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I - BOB. SHAXSNI TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARINI O'RGANISH-IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.

1.2. Ilmiy adabiyotlarda shaxs va uning psixologik xususiyatlari muammosining yoritilishi.

Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivoj topayotgan, boshqa odamlar bilan birgalikdagi faoliyatni amalga oshirayotgan va ular bilan munosabatga kirishayotgan kishi sekin-asta shaxsga aylanib bormoqda moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o'zini o'rganish va faol tarzda qayta o'zgartirish sub'ektiga aylanmoqda.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ, shaxs, individuallik tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisigina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudot, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi.

Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muxit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadur.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jixatlaridan biri – bu uning individualligidir, ya'ni yakkaxolligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, xolatlar, xodisalar, xukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan; yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning manguilikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. SHaxs o'zining qadr

qimmatini va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilish, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy muammolardan birinchisi bir shaxsni boshqa odamlardan ajratib turadigan individual tuzilishiga ega ekanligidir. Ushbu yaqqol psixologik muammolarni hal qilish shaxsning mazkur tuzilishining ichki sharoitlarida ifodalanuvchi xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkoniyatini yaratadi. Mazkur masalaning qo'yilishi dastavval ta'lim va tarbiya ehtiyojlaridan, tashkilotchilikka oid faoliyat soxalari va boshqa ehtiyojlar zamiridan kelib chiqadi. Lekin bu masala ilmiy asosda hal qilish boshqa muammoni, ya'ni shaxsni toifalarga ajratish uning eng muhim, mukammal tuzilishini aniqlash bilan bog'liqdir. Darxaqiqat, shaxs tipologiyasi, shaxsni tipologik tahlil qilishning eng nozik, ibratli jihatlari cheklab o'tish, u xaqida etarli darajada to'la tasavvurga ega bo'lishni hohlasak, uning eng umumiy tasvirini umumlashgan tarzda ta'kidlab o'tish lozim.

Shaxs tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi masala esa bunday tuzilishning bir qancha tarkibiy qismlarga ajratishni taqazo etadi. Binobarin, ushbu bo'laklarning yig'indisi yaxlit inson shaxsini vujudga keltiradi. Jahon psixologiyasi fanida psixologlar shaxsni psixologik tuzilishning tarkibiy qismlarini turli mohiyatiga asoslanib turkumlarga ajratishni tavsiya etmoqdalar.

Hozirgi zamon jahon psixologiyasida biologik va ijtimoiy omilning, voqelikning ta'siri ostida shakillangan inson shaxsida ikkita muhim qism bo'lganligini tasdiqlovchi nazariya yuksak mavqeni egallab turibdi. Mazkur nazariyaga binoan "ichki psixik" ("endopsixik" – yunoncha "endo" ichki degan ma'noni bildiradi) qismlarga ajratiladi, degan g'oyani ilgari suriladi. Ushbu talqinga ko'ra "endopsixika" shaxsning psixik tuzilishining ichki qismlari sifatida psixik elementlar va funktsiyalarining o'zaro bog'liqligi aks ettiriladi. Uning negizida insonning nerv psixologik tuzilishi bilan "endopsixik" aynan bir narsa degan tushunchani tasdiqlash yotadi, go'yoki u odam shaxsning ichki mexanizmini yuzaga keltiradi. Psixik tuzilishning "ekzopsixik" qismi bo'lsa

shaxsning tashqi muxitiga nisbatan munosabatini shaxsga qarama-qarshi bo'lgan barcha jihatlarini shaxslararo va ob'ektiv munosabatini belgilaydi.

“Endopsixika” o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi, xotira, tafakkur, xayol kabi bilish jarayonlarining xususiyatlarini irodaviy zo'r berish xislatlarini, ixtiyorsiz xarakatlarni va shu kabi fazilatlarni aks ettiradi.

“Ekzopsixika” esa o'z tarkibida shaxs munosabatlarining tizimini va uning qiziqishlari, mayillari, ideallari, maslagi, ustunlik qiluvchi, xukmron xissiyotlarini, egallagan bilimlarni, tajribalarni va shu singarilarni qamrab oladi. Tabiiy omilga ega bo'lgan **“endopsixika”** biologik shart-sharoitlarga bog'liqdir aksincha **“ekzopsixika”** ijtimoiy voqeliklar ta'siri ostida yuzaga keladi, tarkib topadi va takomillashib boradi.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog'liq degan nazariyaning namayondalari bo'lmish hozirgi zamon uzoq chet el psixologlari oqibati natijasida shaxsning tuzilishini o'sha ikkita asosiy omillarga ya'ni, biologik va ijtimoiy voqeliklarning ta'siriga bog'liq bo'lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar. Ob'ekt – sub'ekt munosabatini belgilaydi. **“Endopsixika”** o'z navbatida shaxsning ta'sirlanishi idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol jarayonlarining xususiyatlarini, irodaviy zo'r berish xislatlarini aks ettiradi. **“Ekzopsixika”** esa o'z tarkibiga xos munosabatlarini tizimini va uning qiziqishlari, mayillara, ideallari ustanovkalari, mosligi, ustunlik qiluvchi, xukmron xissiyotlarini, egallagan bilimlarni qamraydi.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixionalitik, bixevaristik kabilarni kiritish mumkin. Quyida sanab o'tilgan nazariyalar va ularning ayrim namayondalari tomonidan shaxsni rivojlantirishning printsiplari to'g'risida qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Biogenetik nazariyaning negizida insonning biologik etilishi bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarining taraqqiyoti ixtiyoriy

xususiyat kasb etib, ular bilan o‘zaro shunchaki aloqa tan olinadi, xalos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh maqsadi – biologik determinantlariga qaratiladi va ularning mohiyatidan sotsial psixologik xususiyatlar keltirilib chiqariladi.

Taraqqiyot jarayonining o‘zi, dastavval biologik etilishning universal bosqichi sifatida sharxlanadi va talqin qilinadi.

Biogenetik qonunni F.Myuller va E.Gekkellar kashf qilishgan. Biogenetik qonuniyat organnik taraqqiyoti nazariyasini tashviqot qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o‘ynagan. Biroq organning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ygan. Jumladan, biogenetik qonunga ko‘ra, shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti butun insoniyat tarixiy taraqqiyotining asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g‘oya yotadi.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko‘rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o‘z ifodasini topgan. Uning ta’limotiga binoan, shaxsning barcha xatti-xarakatlari, ongsiz biologik mayillarga yoki instinglar bilan shartlangan, ayniqsa birinchi navbatda, u jinsiy mayliga bog‘liqdir. Bunga o‘xshash biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko‘rinishi bu aksil qutbga joylashgan sotsiogenetik nazariya hiyaoblanadi. Sotsiogenetik yondashishga, shaxsda ro‘y beradigan o‘zgarishlar jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish usullari, uni qurshab turgan odamlar bilan o‘zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko‘ra inson biologik tur sifatida tug‘ilib hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta’siri ostida shaxsga aylanadi.

AQSH da keng tarqalgan nazariyalardan bittasi – bu individual tajriba va bilimlarni egallash nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning xayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko‘pincha ko‘nikmalarni egallash va bilimlarni o‘zlashtirishning samarasi qo‘zg‘atuvchini uzluksiz ravishda

mustahkamlanib borishning maxsulidir.

Yuqorida taxlil qilingan har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o'zgalar uchun yopiq yoki maxdud muxit xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda tushuntiriladi, bu o'rinda odam xoxlaydimi yoki yo'qmi bundan qat'iy nazar mazkur sharoitga moslashmog'i zurur, degan aqidaga amal qiladi.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sotsiogenetik omillarning qimmatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotining birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ushbu yondashishning uchta mustaqil yo'nalishiga ajratib taxlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati maxsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

1.2.Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar va psixologik shart-sharoitlar

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir. Masalan, biron mahallada inson shaxsining tarkib topishiga aktiv ta'sir ko'rsatuvchi besh yuzta o'ziga xos ijtimoiy muhit bor degan ma'noni bildiradi. Bu erda shunday bir savol tug'iladi: «*Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday ta'sir qiladi?*»

Birinchidan, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muhit ta'sirining chuqurroq va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Ma'lumki, bolalar o'z tabiatlariga ko'ra, ilk yoshlik chog'laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o'zlariga singdirib boradilar, Bolalar oilada, ko'cha - kuyda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.

Inson shaxsining tarkib topishida tashqi **ijtimoiy muhit**ning roli haqida gap borar ekan, shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ayrim g'ayri tabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit ta'sirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tutayapmiz. Hayotda bunday hodisalar juda siyrak bo'lsa ham har holda uchrab turadi. Masalan, Hindistonlik doktor **Sivg Kalkutta** yaqinidagi o'rmonzorda bo'ri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining ham to'rt oyoqlab yugurib yurganini ko'rib qoladi. Keyin ularni poylab, qarorgohlarini topib, bolalarni olib ketadi. Ulardan biriga **Amala**, ikkinchisiga **Kamala** deb nom qo'yadi. SHu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan bo'ri muhitiga tushib qolganliklari tufayli, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlari jihatidan bo'rilardan farq qilmas edilar. Nutq yo'q, demak tafakkur ham nihoyat darajada cheklangan edi, juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanilayotgan bo'ri muhitidagi bolalar shamollash natijasida o'lib qoladilar, Bu hodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval

insoniy muhit, ya'ni ijtimoiy muhit bo'lishi kerakligini to'la tasdiqlaydi.

Shaxs va uning psixologiyasiga ta'sir etuvchi **ikkinchi omil ta'lim-tarbiyaning** ta'siridir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruhiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi faqat tashqi ijtimoiy muhit bilan, ta'lim-tarbiyaning o'zigagina bog'liq bo'lganda edi, unday paytda biz bir xilda sun'iy va aynan bir xil ta'lim tarbiya sistemasini tashkil qilib, har tomondan bab-baravar taraqqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega kishilarni etishtirib chiqarar edik. Vaholanki, bunday bo'lishi mumkin emas. Shuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim tarbiyaning ta'siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya'ni bog'cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta'lim-tarbiya tushuniladi. Biroq, bundan oilada bolaga beriladigan ta'lim tarbiya mutlaqo mustasno emas! Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari oilada beriladigan ta'lim-tarbiyaning roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali shug'ullanadigan va umuman shug'ullanmaydigan oilalardan misollar keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan ikkita omildan tashqari **uchinchi omil ham mavjud - bu nasliy xususiyatlardir.** *Odamga nimalar nasliy beriladi?* Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma berilishi mumkin. Lekin shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatleri nasliy yo'l bilan, ya'ni tug'ma ravishda berilmaydi. Nihoyatda nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqiy, matematik qobiliyatlari nasliy yo'l bilan berilishi mumkin.

Odamning ruhiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim narsa ustida tuxtab o'tish kerak. Hozirgi kunda tez-tez **akseleratsiya** terminini ishlatayapmiz.

Akseleratsiya bu nima? **Akseleratsiya** - «tezlatish» degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda bolalarni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan juda jadallik

bilan rivojlanayotganliklarining guvohi bo'lib turibmiz. *Buning sababi nima?* Albatta, bunga turli fikrlar bor. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy-texnika bilan bog'lab tushuntirishga intilmoqdalar. Ularning fikricha, ilmiy texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi insoniyatning oldiga mislsiz ko'p informatsiyalarni idrok qilish va fikrda qayta ishlash talablarini qo'ydi. Bu talab uz navbatida insonni har tomonlama, ya'ni ham jismoniy, ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keladi. Yuqorida aytib o'tilgan olimlarning fikricha, akseleratsiya - bu XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan hodisadir.

Bola shaxsini shakllantirishda faoliyatning roli. Tarbiyachi ong va xis - tuyg'uga ta'sir ko'rsatar ekan, tushuntirish ishlarini olib borishning o'zi etarli bo'lmaydi, balki qat'iy e'tiqodni, barkamollikni, yuksak axloqiy sifatlar, malaka va munosib xulq - atvor odatlarini shakllantirishga ko'maklashuvchi tarbiyalanuvchilarning ijobiy faoliyat tajribalaridan foydalanilgan. Bunda tarbiyaviy vazifalarni mehnat, o'quv ijtimoiy faoliyat, jismoniy tarbiya va boshqa mashg'ulotlar jarayonida hal qilish mumkin. Faoliyat tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy - siyosiy munosabat va ijtimoiy xulq - atvor tajribasi bilan boyituvchi muxim manba bo'lib hisoblanadi. Buning uchun faoliyatga pedagogik raxbarlik metodlarini shart qilib qo'yuvchi quyidagi qonuniyatlarga amal qilish zarur.

a) xilma - xil faoliyat turlaridan kompleks foydalanish, zero ularning har biri muayyan tarbiyalovchi xarakterga ega.

b) xatto ijtimoiy qimmatli faoliyat xam «o'z ma'no mazmuniga ega» bo'lmasa, tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatmaydi.

v) faoliyat jarayonida maqsadga qarab usullarni aniq tanlash lozim.

g) tarbiyaning turli usul va metodlarini birga qo'shib olib borishda ularning bir - biriga yaqin ekanligini qisobga olish kerak.

Tarbiya metodlarini bir xilda qo'llash, yondashish mumkin emas. Ayni bir metodning o'zi ham foyda, ham zarar keltirishi mumkin. Ba'zi xollarda qattiq jazolash, boshqa xolatlarda ma'qul ko'rmagandek, qarab qo'yish shunchaki ogoxlantirish kifoyadir. Bu tarbiyalanuvchiga yaxshi yoki yomon odatlarning tarkib topganiga, ta'sirni qabul qilishiga bog'lik. SHuning uchun tarbiyachi

metodlarni tanlashda qator shart -sharoitlarni xisobga olish kerak. Metodlarni tanlashda tarbiyaviy faoliyatning vazifa va mazmun, o'quvchi, jamoaning tarbiyalanganlik darajasi, tarbiyalanuvchining individual psixologik xususiyatlari yuz bergan vaziyatning xususiyatlari va tarbiyachi pedagogning maxorati darajasi bilan bog'likdir.

Tarbiya metodlariga yana shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

Rag'batlantirish metodlari o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va o'ayrat bao'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchini mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma-xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, oo'zaki yoki yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi.

Rag'batlantirish pedagogik-psixologik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rmini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida manmanlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyatlari bilan birga, uning jamoadagi o'rni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Jazo berish metodlari – bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-

harakatlarning oldini olishi, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyo'tishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uning qo'llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham xilma-xil bo'lib, ular jumlasida tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatidan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berishda ham pedagogi-psixologik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchining aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish choo'ida salbiy xatti-harakatning sabablari unig jamoaga etkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari inobatga olinishi lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham jazo o'quvchining jismoniy va ruhiy azobga solmasligi uni tahqirlamasligi, sha'nini erga urmasligi, Huquqini paymol etmasligi kerak. Tarbiya metodlarini sharoitni, vaqtni, shuningdek, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya jarayonida xar kanday ijtimoiy - foydali faoliyatning vazifasi ochib borilgan takdirda, tarbiyalanuvchilarga ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Bunda faoliyatning jozibadorligi, ijtimoiy ahamiyati, uning bola maktab, davlat uchun zarurligini aniq ko'rsatish lozim.

Axloq - odobga oid etik suhbatlar. O'quvchida g'oyaviy - axloqiy sifatlarni shakllantirish, ong va irodani mustaxkamlashda etik suhbatlar, o'kituvchining jonli so'zi katta ahamiyat kasb etadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur guruh uchun dolzarbligi, bolalarda ijtimoiy - siyosiy va axlokiy ishonch uyg'otishi, suhbatdan kutilayotgan natijalarga e'tibor qaratish lozim. Suhbatlar mazmuniga kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o'zini tuta bilish qoidalari, tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi, davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, koinot, hayvonot dunyosiga oid mavzular tanlanishi mumkin.

Suhbat davomida talabalarning qiziqishi, xohishi, irodasini xisobga olib,

ularda havas uyg'otish, o'quvchilar tafakkurini rivojlantiruvchi savollar berish, baxs munozaralarga sabab bo'lib, tarbiyalovchi axamiyati katta bo'ladi.

Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadiga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turlari kiradi. O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va manaviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari, badiiy-ilmiy adabiyotlar, sanat asarlari, radio, televidenie, kompyuter, magnitafon, slaydo, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyo'u, xulq-atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishidagi faoliyati uyushtiriladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnik vositalardan foydalanishga alohida diqqat etibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning manaviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning ob'ektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini, hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

- Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarini belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yio'indisidir.

II-BOB. SHAXSNI TARBIYALASHDA XULQ-ATVOR VA ODATNI SHAKLLANTIRISH PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKTSIYASI

2.1 . Xulq -atvor va odatni shakllantirishga va agressiyaga moyillikni kamaytirishga mo'ljallangan psixokorreksion dastur.

Biz quyida Xulq -atvor va odatni shakllantirishga va agressiyaga moyillikni kamaytirishga mo'ljallangan psixokorreksion dasturini ishlab chiqdik.

Dastur mazmuni: Ushbu dastur shaxsning zarur ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, shuningdek xulq-atvor va odatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik mashqlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Dasturning maqsadi: Ta'lim jarayonida o'quvchilarning zarur ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish.

Dasturning asoslanishi: Biz psixokorreksion dasturning tarkibiga kiritilgan mashqlar va mashg'ulotlarni aniqlovchi diagnostik bosqich natijalariga hamda ta'lim jarayonidagi o'quvchilarning muloqoti va xulq-atvoriga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda tanlash va tartiblashga amal qildik. Chunki, bu psixokorreksion dasturning nazorat bosqichida olinayotgan natijalarimizda aniq va kerakli natijalar berishi mo'ljallangan edi.

Ushbu psixokorreksion dasturimiz 6 kunga muljallangan mashqlar majmuasidan iborat bo'lib, ular asosan o'quvchilarda zarur ijtimoiy fazilatlarni o'yin mashqlari orqali shakllantirishga mo'ljallangan.

1-kun mashqlarining borishi:

1-maydoncha "Salomlashish" mashqi

Mashqning borishi: Guruh a'zolari doira qilib o'tkaziladi. So'ngra ularning har biri ikki – uch kishidan kichiq guruhlariga bo'linadi. Har bir talabaga bittadan so'z beriladi.

Masalan: aniq, sandiq, chandiq, hormang, tolmang, keling olin va hokozo. Salomlashish anashu so'zlardan to'zilgan bo'ladi. Barcha ishtirokchilar salomlashishni bir vaqtda atadi. Lekin har bir gurucha o'z so'zini atadi xolos. Salomlashish baqirib ovozda atilmasdan balki bir tekis nafas olib, so'ng talaffo'z

qilinadi. Natijada “APCHXI” kabi so‘z hosil bo‘lishi kerak. Mashq 2-3 marta takrorlanadi.

Ushbu mashqning maqsadi birinchidan hol – ahvollarini bo‘lsa ikkinchidan ishtirokchilarda ko‘tarinkilik , iliq psixologik munosabatni shakllantirishdan iborat.

1-maydoncha”Tanishish” mashqi

Mashqning borishi: Salomlashish tugaganidan so‘ng ishtirokchilardan bittasi o‘z ismini atadi. (talabalar bir – birlarini yaxshi bilganlari uchun ism emas tahallus aytadi). Unig chap yoki o‘ng tomonida o‘tirgan ishtirokchi esa birinchining va o‘zining tahallusini aytadi. Uchunchi talaba esa birinchining, ikkinchining va o‘zining tahallusini aytadi . SHu tariqa tanishuv oxirigacha davom etadi.

Treningning oxirgi ishtirokchisi birinchidan boshlab, guruh a‘zolarining hammasining va o‘zining ismini aytadi. Guruh a‘zolari anashu tarzda tanishib oladilar.

“Tanishish” mashqining maqsadi ishtirokchilarni o‘zaro bir – birini yaxshiroq tanib olishi, samimiylilikni shakllantirishdan iborat bo‘lib ichki to‘siqni engishga yordam beradi.

2-maydoncha ”O‘z-o‘zingi angla !” o‘yin mashqi

Mashqning borishi: Talabalar guruhining har bir ishtirokchisi qo‘liga alohida kartochkalarda “LIDER” va “FAROSAT” so‘zlari vertikal xolda yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Kartochkada so‘zlardagi harflar vertikal ko‘rinishda yozilgan bo‘lib, ishtirokchi har bir harfning ro‘parasiga o‘sha harf bilan boshlanadigan, va o‘zida mavjud deb hisoblagan shaxsiy sifatlarni ko‘p o‘ylamasdan yozib chiqishi kerak.

O‘yin mashqi maqsadi: ishtirokchilarda o‘z-o‘zini to‘g‘ri anglash va o‘ziga nisbatan sezitivlikni shakllantirishdan iborat.

2-kun mashqlarining borishi:

3-maydoncha «SHirinsuxan» mashqi

Mashqning borishi: Guruh a'zolari galma-galdan har bir o'quvchiga xos bo'lgan bironta, uning eng yaxshi fazilatlarini sanab o'tadilar. Natijada guruhning har bir a'zosida haqiqiy yoqimli to'la tasavvur paydo bo'ladi.

O'yin tugaganidan keyin trener davrada har bir o'quvchidan unga qarata «Shirinsuxan» so'zlar aytilayotganda, u nimalarni his etganligini so'rab guruh oldida o'z taassurotlari haqida gaplashishiga imkon berad

Mashqning maqsadi: O'yin davomida o'quvchilarning diqqatini muloqot jarayonida «shirinsuxan» so'zlarni va iboralarni qo'llashning ahamiyatliligiga qaratishdan iboratdir. O'quvchining o'z tajribasi orqali har bir guruh a'zosi aytilayotgan «shirinsuxan» so'zlarni qanday hislarni yuzaga keltiraetganligini anglab yotishdir.

4-maydoncha «Iltimos» mashqi

Mashqning borishi: Ishtirokchilar juftliklarga bo'linib, bir-birlaridan originallik, topqirlik, ustomonlik va xushmuomalalik bilan biron narsani iltimos qiladilar.

So'ngra ishtirokchilar o'rin almashib boshqa juftliklarni hosil qiladilar va yangi sheriklari bilan muloqotga kirishadilar. O'yin so'ngida ishtirokchilar barcha guruh a'zolari bilan o'z taassurotlarini muhokama kiladilar.

Mashqning maqsadi: Insonda o'z iltimosini bildirish ko'nikmasini shakllantirish, muloqot malakalarini rivojlantirish, muomala madaniyatini tarkib toptirish, shaxslararo munosabatlarga kirisha olishga ko'maklashish

3-kun mashqlarining borishi:

5-maydoncha «Tashvishlar o'yini» mashqi

Mashqning borishi: Hayotingizda uchrab turadigan va sizni tashvishlantiradigan, havotirlantiradigan salbiy holatlarni tasavvur qiling, ularni xayolan rivojlantiring, voqealar kechishida «ha..., biroq...» tamoyiliga suyanib, ongingizga erkinlik bering hamda hazil ila «ha hurmatli miyam, bugun sen menga barcha tashvishli va havotirli kunlarimni eslat» - deya murojaat qiling.

Muolaja: O'zingizga ma'qul va qulay holda ko'zlaringizni yumib o'tiring. 2-3 marta chuqur nafas oling va nafas chiqaring. Endi o'ng qo'lingizni ko'tarib

qattiq musht qiling, unda zo‘riqish holatini sezing. 10-15 sekunddan so‘ng mushtni qo‘yib yuboring va bo‘shashishni his eting. Ushbu muolajani har ikki qo‘lda bir necha bor qaytaring. Boshqa paylaringizga zo‘r bermang. Shu tariqa «zo‘riqish» va «bo‘shashish» holatlarini qaytaring, bu juda yoqimli.

O‘zingizga kelish uchun teskari tartibda 10 dan 1 gacha asta sanang, har bir rakamdan so‘ng o‘zingizda engillik va tiyraklik sezasiz.

Mashqning maqsadi: Insonlarda muloqot jarayonidagi zo‘riqish, havotirlanish va tashvishlanish darajasini yo‘qotish.

6-maydoncha “Inkor etilganlar” mashqi

Mashqning borishi: Breynstorming usuli yordamida jamiyatda inkor etilganlar toifasiga kiruvchilar va ularning paydo bo‘lish omillari hamda shunday kishilarga yordam berish choralari haqida fikr almashinadi. Ma’lum muddat o‘tgach, guruhning o‘zida ayrim belgilar asosida a’zolar toifalarga bo‘linib, trener boshchiligida tabiiy eksperiment yo‘li bilan “inkor etilganlikni his qilish ” o‘yini tashkil etilishi mumkin.

Mashqning maqsadi: Ishtirokchilarda ijtimoiy munosabatlardan chetda qolish va uning oqibatlari haqida tasavvurlarni shakllantirish.

4-kun mashqlarining borishi:

7-maydoncha «O‘ziga o‘zi xat yozish » mashqi

Mashqning borishi: Ishtirokchi o‘ziga-o‘zi xat yozadi. Unda o‘zidagi mavjud ijobiy hislatlarni, o‘zidagi noyob fazilatlarni aks ettirishi lozim. Har bir ishtirokchi guruh a’zolariga o‘zining xatini o‘kib eshittiradi. Guruh a’zolari bunda bir-birlarining fikrlarini e’tirozsiz qabul qilishlari va bir birlarining ijobiy fazilatlarini qo‘llab-quvvatlashlari lozim. So‘ng guruhiy muhokama bo‘lib o‘tadi.

Trening maqsadi: Ishtirokchilarning o‘zini-o‘zini konstruktiv baholashni shakllantirish, o‘ziga adekvat munosabatni tarkib toptirish.

8-maydoncha «YAshirin salom» mashqi

Mashqning borishi: Ishtirokchilarga quyidagi uch xil xulq (ishonchli, suet va tajovo‘zkor) yo‘nalishi bo‘yicha vaziyatni tahlil qilish vazifasi yuklatiladi.

1. Dugonangiz uchrashuvga kiyib chiqish uchun sizning eng yaxshi ko'rgan ko'ylagingizni so'radi. Biroq siz berishni xohlamayapsiz.
2. Sizga yoqqan narsani sotib olishingiz uchun pul etmayapti, o'rtog'ingiz sizdan qarz olganiga ancha bo'lgan, ammo yaqin orada berish niyati yo'qqa o'xshaydi. Undan kanday so'raysiz?
3. Yaqinda sotib olgan mashinangizni do'stingiz bir muncha vaqt minib turishni so'rayapti, mashina juda qimmat. Nima qilish kerak? Vaziyat tahlil kilinadi.

Trening maqsadi: O'zida ijobiy ustanovkalarni tarkib toptirish, o'z-o'ziga adekvat baho berishni va muloqot madaniyatini shakllantirish.

5-kun mashqlarining borishi:

9-maydoncha «Nima? Kim? Qanday? Qaerda? Qachon?»

refleksiv muolajasi

Mashqning borishi: Yaqin kelajak rejalarini aniqlashga va «hayotiy dastur»ni to'zishga o'rgatish Trener har bir ishtirokchiga yaqin orada erishishi mumkin bo'lgan orzu-umidlarini ko'rib chiqishni va ularning ahamiyatlilik darajasiga ko'ra joylashishlari kerakligini tushuntiradi. O'z ehtiyojlarini qondirishga asoslangan muvaffaqiyat dasturini to'zish quyidagi qoidalarga asoslanadi:

-«menda nima bo'ladi?», «men nimani xoxlayman?», «men mag'lubiyatni qanday his qilaman?» va hokazolar kabi muvaffaqiyat kalitini to'zish;

-har kim o'zi bajara oladiganini rejalashtirish;

-qo'lga kiritilgan natijalarni sensor tizimda: his etish, sezish, tovush, kayfiyat va hokazolarda tasvirlash;

-ko'lga kiritilgan natijalar qachon va qay tarzda kerak bo'lishini tasavvur qilish;

-kutilgan natijalarning oqibati nima bilan tugashi mumkinligini o'ylab ko'rish.

Guruhda natijalar muhokama qilinadi.

Mashqning maqsadi: YAqin kelajak rejalarini aniqlashga va «hayotiy dastur»ni tuzishga oʻrgatish

10-maydoncha «Ishonchli, ishonchsiz va tajovuzkor javoblar» mashqi

Mashqning borishi: Guruhning har bir aʼzosi qayd etilgan vaziyatlarga ishonchli, ishonchsiz, tajovvoʻzkor javob tiplarining qay biri toʻgʻri kelishini koʻrsatishi lozim.

Oʻrtogʻingiz sizni ogohlantirmasdan begona kishini olib keldi.

Kinoteatrda orqangizda oʻtirgan odamlar baland ovozda gapirib, kino koʻrishingizga imkon bermayaptilar.

Fikringizcha, qoʻshningiz oʻzining axmoqona savollari bilan sizni tutib turibdi. Oʻqituvchingizning fikricha, sizning kiyinishingiz va soch turmagingiz oʻquvchining tashqi koʻrinishiga xos emas.

Vaziyatni juft-juft boʻlib tahlil qilish mumkin, undan soʻng barcha guruh aʼzolari birgalikda muhokamani davom ettiradilar.

Mashqning maqsadi: Oʻkuvchilarda turli vaziyatlarga nisbatan adekvat reaksiyani shakllantirish

6-kun mashqlarining borishi:

11-maydoncha. «Xulqnn baholash yoki tuzatish» mashqi

Mashqning borishi: Alohida ishtirokchi yoki guruhning barcha aʼzolari tomonidan jamiyatda nomaqbul deb hisoblangan, ayni vaqtda oʻzlari voz kechishni istayotgan shaxsiy xulq sifatlarini ajratib koʻrsatadilar. Uni toʻliq anglashga urinib, undan voz kechish usullarini topishga harakat qiladi. Agar ishtirokchilar oʻzlarida nomaqbul xulq mavjud emas deb hisoblasalar, hayotdan boshqa misollarni keltirib, toʻzatish yoʻllarini topishga harakat qilishi mumkin. Mashgʻulot nihoyasida har bir ishtirokchi oʻz fikr-mulohazalari bilan oʻrtoklashadi.

Trening maqsadi: Guruhiy nizolarni va oʻylab topilgan rollar tahlili orqali xulqni modifikatsiya hamda korrektsiya qilish.

12-maydoncha. «Attraktsiya» mashqi

Mashqning borishi: Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar. Har bir ishtirokchiga ko'zgu beriladi. Gurux a'zolarining har biri oynaga qarab, o'zlariga o'zlari xushomad qilishlari, o'zlarini o'zlari maqtashlari, eng yaxshi istaklarni bildirishlari lozim bo'ladi. Ishtirokchilarga ko'rsatma berilgach, berilgan vazifani bajarishlari uchun 10 daqiqa vaqt beriladi. SHundan so'ng bu vaziyatni guruh a'zolaridan birini tanlab, tanlangan sherigiga nisbatan amalga oshirishi lozim

Mashq tugagach barcha ishtirokchilar o'z-o'ziga va sherigiga nisbatan attraktsiyasida nimalarni his etganligi va o'z kechinmalarini so'zlab beradilar.

Trening maqsadi: O'zini o'zi va boshqalarni qabul qilishga o'rgatish, o'z-o'ziga va o'zgalarga nisbatan adekvat baho berishni shakllantirish.

«Haqiqiy inson» mashqi

Mashqning borishi: Guruh a'zolari doira shaklida o'tiradilar. Trener ko'rsatmasiga binoan har bir ishtirokchi «Men xaqiqiy insonman» iborasini uch marta turlicha mimika va ohangda aytadi. SHundan so'ng guruhning boshqa a'zolari ishtirokchi tomonidan o'z-o'ziga berilgan baho bilan uning tashqi mimika va ohangi mos kelganligi va mos kelmaganligini tahlil qiladilar va o'zlarining fikrlarini bayon etadilar. Guruhning barcha a'zolari o'zlarining istagan xususiyatlari bo'yicha o'z-o'zga nisbatan bahosini turli mimika va ohangda aytishlari so'raladi. Mashq shu tariqa davom etadi.

Trening maqsadi: Ishtiroqchilarda ijobiy ustanovkalarni tarkib toptirish, shakllangan ko'nikma va malakalarni mustahkamlash.

2.2. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tahlili.

O'quvchilar o'rtasida xulq atvor va odatlarni o'rganish uchun biz amerikalik olim psixolog **N. K.Tomasning** testidan foydalandik. Bu test 1973 yilda psixolog N.V. Grishina tomonidan adaptatsiya qilingan. Mazkur metodika shaxsning xulq atvor va odatlarini hamda uning ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketish uchun o'z-o'zini muxofaza qilishga qaratilgan ma'lum yo'nalishni tanlashi va shu asosida o'z –xulq atvoridagi bahs munozaraga, o'zaro hamkorlikka, o'zaro kelishuvga, o'zini chetga olishga, o'zini moslashtirishga qaratilgan ichki etakchi harakat motivatsiyasii aniqlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

Binobarin mazkur metodika yordamida u yoki bu o'smirdagi ma'lum psixologik himoya imkoniyatlari haqida tegishli mulohazalar yuritish mumkin.

N.Tomasning takidlashicha, nizoli vaziyatlarda har bir shaxs o'ziga xos (tipik) harakat usulini tanlaydi. Ushbu harakat usulini o'rganib olish orqali bu shaxslar bilan nizolarni hal etish usuliga ega bo'lishi mumkin.

Metodikani qo'llash tartibi: Sinovchiga 30 juftlikdan iborat savolnoma taqdim etiladi va har bir savolnomadagi juftlikdan faqat bittasini ya'ni o'z xoxishlariga mos keladiganini tanlash va belgilash tavsiya qilinadi. Undan so'ngra har bir tanlangan juftlikdagi savol ("a" yoki "b") metodika kaliti asosida baxolanadi.

Mazkur metodika yordamida shaxs ichki motivatsiyasi va shaxslararo munosabatdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va ziddiyatli holatlarni boshqarish individual uchun xarakterli holatlarni belgilab olinadi. Yana shuni aytish joizki, ziddiyatlar tipologiyasiga asoslanib K.Tomas bu jarayon uchun, etakchi bo'lgan ikki hol xulq-atvor yo'nalishini belgilaydi. Ya'ni, birinchisi, kooperatsiya konfliktga jalb etilgan shaxsning o'zgalarga qiziqishga o'z diqqatini qaratganligi bo'lsa, ikkinchisi ziddiyatga kirishgan o'z shaxsiy qiziqishlarini himoya qilish uchun o'ta qat'iylikni namoyon etishini o'z ichiga oladi.

Binobarin mazkur ikki yo'nalish yoki mezon asosida K.Tomas ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan quyidagi individual uslublarni tavsiya etadi: Bu test 30 ta savoldan iborat bo'lib nizoli vaziyatlarga nisbatan shaxsning harakat reaksiyasini 5 yo'nalish bo'yicha aniqlaydi.

A) Bahs-munozara (raqobat) o'zgalarni engish hisobiga qiziqishlarini qondirishga erishish uchun intilish.

B) Hamkorlik-vaziyat ishtirokchilari muqobillikka keladilar, bu muqobillik ikkala tomon manfaatlarini qondirishga xizmat qiladi.

V) Kelishuv (kompromiss) – o'zaro bir-biriga yon berish yo'li orqali ziddiyatli vaziyat ishtirokchilarining bir murosaga kelishi.

G) O'zini chetga olish – o'z maqsadlari va o'zgalar maqsadlarini birdek amalga oshirish uchun yo'naltirilgan harakatda faol ishtirok etmaslikka moyillik.

D) Moslashish – bahs munozaraga kirishmasdan o‘z shaxsiy qiziqishi va manfaatlarini o‘zgalar faoliyati uchun qurbon qilishga tayyorlik.

Mazkur usulni qo‘llash orqali respondentlarning ziddiyatli vaziyatga nisbatan faolligini namoyon etuvchi xulq-atvor motivatsiyasi ko‘rinishlariga baho berishi haqida tegishli tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Endi o‘smirlikning bevosita ziddiyatli holatni bartaraf etishga qaratilgan individual xulq-atvor motivatsiyasi ko‘rsatkichlari tahliliga o‘tamiz. Chunki mazkur yo‘nalishdagi tahlil asosida ziddiyatli holatlarda o‘smir ichki motivatsiyasida namoyon bo‘ladigan psixologik muxofaza imkoniyatlari haqida tegishli empirik ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Ushbu test natijalarini tahlil qilishdan asosiy maqsad: o‘smirlik davri uchun xarakterli bo‘lgan xususiyatlarni aniqlash, ikkinchidan har bir o‘smir uchun ziddiyatli holatni bartaraf etishga qaratilgan individual-psixologik ziddiyatli vaziyatlarda o‘smirlar xulq atvorini bilish, uchinchidan, umuman o‘smirlik davri uchun xarakterli bo‘lgan 5 yo‘nalishdagi (“A”, “B”, “V”, “G”, “D”) barcha ziddiyatli vaziyatlarda o‘smirlar xulq atvori ko‘rsatkichlarini qiyosiy-tipik tahlil qilish va tegishli qonuniyatlarni o‘rganishdan iboratdir.

1-jadval

Nizoli vaziyatda tanlangan harakat usullari jadvali

№	O‘quvchilarning ismi-sharifi	Raqobat	Hamkorlik	Kelishuvchanlik	Nizodan qochish yoki o‘zini olib chiqish	Moslashuvchanlik
1	A.I	12	3	5	6	4
2	B.G.	4	7	7	7	5
3	B.S.	8	5	6	3	8

4	B.N.	9	6	3	4	4
5	K.D.	5	5	6	5	9
6	S.N.	3	6	6	5	10
7	E.O.	6	6	7	5	6
8	SH.O.	8	6	4	8	4
9	I.L.	7	7	3	7	6
10	O.P.	5	8	6	6	5
11	S.L.	8	6	9	2	5
12	A.F.	7	8	3	7	5
13	K.Z.	9	4	6	5	6
14	K.B.	11	6	6	3	4
15	O.E.	3	9	6	6	8
16	T.L.	5	6	7	3	9
17	N.K.	7	4	4	6	9
18	O'.A	7	5	6	7	5
19	X.M.	6	5	6	5	8
20	Q.D	7	6	5	5	7

2-jadval

Yaqqol ifodalangan harakat usullarining foiz hisobidagi ko‘rinishi

№	Harakat usullari	Yuqori ball to‘p-lagan o‘quvchilar soni	Umumiy foiz hisobida
1	Raqobatchilik	4	20 %
2	Hamkorlik	5	25 %

3	Kelishuvchanlik	4	20 %
4	Nizodan qochish yoki o'zini olib chiqish	5	25 %
5	Moslashuvchanlik	8	40 %

Keltirilgan jadvallardan (№1, №2, №3, №4, №5) yaqqol ko‘rinib turibdiki, Tomas uslubi bo‘yicha aniqlangan ziddiyatli vaziyatlarni aniqlash va oldini olish ko‘rsatkichlari o‘smirlar orasida turli xil darajalarga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. CHunonchi, tadqiqot maqsadiga mos va shartli ravishda qabul qilingan mezonlarning (“bahs-munozara”, “hamkorlik” “kelishuv kompromiss”, “o‘zini chetga olish”, “moslashish”) o‘ziga xos psixologik himoya dinamikasini tashkil etadi. Jumladan, ziddiyatli vaziyatlarda o‘smirlar xulq atvori mezoni sifatida – Adekvat xulq-atvor motivatsiyasi o‘ziga xos individual uslubni namoyon qila olish kabi xususiyatlarning o‘smir shaxsida va faoliyatida namoyon etilishi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar miqdorini tahlil qilish va shu tahlillarga tayanib tegishli xulosalarni bayon etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadvaldagi raqamlardan ko‘rinadiki, maktab o‘quvchilari ziddiyatli vaziyatga tushganda o‘zlarini ko‘proq “Bahs-munozara” motivatsiyasi afzal bilishlari yaqqol seziladi. Xar bir motivatsiya yo‘nalish bo‘yicha va bu motivatsiya yo‘nalishining qiyosiy o‘rtacha tipik ko‘rsatkichlari bo‘yicha empirik ma’lumotlar **№1 jadvalda** qayd etilgan. Biz bu erda o‘smirlik davrida Tomas uslubi bo‘yicha ziddiyatli vaziyatlarda o‘smirlar xulq atvori ko‘rsatkichlari iearxik tizimni aniqlashga muvafaq bo‘ldik. Ungi ko‘ra maktab o‘quvchilari orasida (p=20) taqdim etilgan 5 yo‘nalish bo‘yicha 1-o‘rinni “hamkorlik” asosidagi himoya motivatsiyasi egallagan bo‘lsa, 2-o‘rin “kelishuv” (kompromiss) motivatsiyasiga, 3-o‘rin “moslashish” motivatsiyasiga, 4-o‘rin o‘zini chetga olish motivatsiyasiga va oxirigi 5-o‘rin “bahs-munozara” motivatsiyasiga to‘g‘ri kelishi bilan xarakterlanadi. Demak, o‘smirlik davrining

dastlabki bosqichlarida ziddiyatli vaziyatlarda oʻz-oʻzini psixologik muxofaza qilish haqidagi tasavvurlar koʻproq hamkorlik va kelishuv (kompromiss) motivatsiyalari asosida shakllanishi mumkinligini koʻramiz. Ayni paytda, bahs-munozara (1-yoʻnalish) asosida oʻz-oʻzini himoya qilishga moyillik nisbatan (taqdim etilgan beshta yoʻnalish boʻyicha atbatta) kamroq uchrashishni koʻrish mumkin.

Litsey oʻquvchilari esa ziddiyatli vaziyatlarda oʻz-oʻzini psixologik himoya qilish haqidagi tasavvurlar nisbatan bir oz oʻzgarganligini koʻramiz. Yaʼni tanlov uchun taklif etilgan besh yoʻnalishga nisbatan eng birinchi oʻrin “Bahs - munozara” yoʻnalishga toʻgʻri kelyapti. Demak maktab oʻquvchilari bu yoʻnalish oxirgi oʻrinda boʻlishi va litsey oʻquvchilari birinchi oʻringa chiqib olishining asosiy sababi oʻsmirlarning oʻziga xos ijtimoiylashuvi, oʻsmirlardagi “Menlik”ning oʻzgarishi va oʻsmir mustaqil fikrlashga, hayotda oʻz fikrini oʻzgalarga singdirishga koʻproq moyilligining namoyon etilishi bilan bogʻliq boʻlsa kerak. Tadqiqot maqsadiga mos qoʻshimcha usullar orqali olingan maʼlumotlarimiz ham ushbu fikrni tasdiqlash mumkin. **Masalan**, litsey oʻquvchisi **M**-ning taʼkidlashga, u koʻproq turli munozaralarda ishtirok etishni, oʻzi aytgan gapida qatʼiy turishni oʻz maqsadiga erishish uchun juda koʻp intilishni yoqtiradi va u har qanday ziddiyatli holaga duch kelganda mazkur qoidalarga asoslanib ish tutishi juda muhimdir.

Maktab oʻquvchisi **L** esa men ziddiyatli vaziyatga tushganda oʻrtoqlarimdan yordam soʻrayman, ular bilan birgalikda muvafaqqiyatsizliklarni engishga intilishni afzal koʻraman, deya oʻz mulohazasini bildiradi. Yana shuni taʼkidlash joizki, maktabda ham litseyda ham ziddiyatli vaziyatni bartaraf etishga yoʻnaltirilgan barcha yoʻnalishlar xosdir, zero oʻsmir shaxsi faoliyatida yoki faolligida u yoki bu yoʻnalishga xos himoya imkoniyatlarining etakchilik qilish shaxsning oʻziga xos individual va betakror olami mavjudligi bilan belgilanadi va baxolanadi. Shunday boʻlsada, umumiy holatda maktab oʻquvchilaridan 28 nafar, litsey oʻquvchilaridan 27 nafar oʻsmirlar tanlanib, ulardan olingan natijalar oʻrtacha umumiy va qiyosiy tarzda tahlil qilinganda quyidagi maʼlumotlar qoʻlga

kiritildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, xar bir yo'nalish o'ziga xos o'rinlarga ega. Jumladan, **“Bahs-munozara”** yo'nalishi maktab o'quvchilari uchun oxirgi o'rinda bo'lsa litsey o'quvchilari uchun esa birinchi o'rinni egallaydi. Psixologik himoya ierexiyasidagi **“hamkorlik”** yo'nalishi ko'rsatkichlari ikkala o'smirlik davrida ham etakchilik qilmoqda.

Uchinchi yo'nalish – **“kelishuv”-“kompromiss”** esa maktab o'quvchilari orasida 2-o'rinni litsey o'quvchilari orasida esa 4-o'rinni egallash bilan alohida xarakterlanadi.

To'rtinchi yo'nalish hisoblangan **“o'z-o'zini chetga olish”** motivatsiyasi esa maktab o'quvchilari orasida 4-o'ringa litsey o'quvchilari orasida esa 3-o'ringa to'g'ri keladi.

Beshinchi yo'nalishdagi **“Moslashuv”** ga moyillik motivatsiyasi ko'rsatkichlari maktab o'quvchilari orasida 3-o'rinni litsey o'quvchilari orasida esa oxirgi 5-o'rinni egallab turibdi. Buni asl sababini qo'shimcha usullar orqali o'rganamizda, asosan o'smirlik davrida o'smirlar o'zgalar fikriga quloq solish, o'zgalar talabiga moslashish, o'z mustaqil fikrlaridan ba'zan voz kechish hisobiga o'zgalarga ko'maklashish kabi xarakterlar orqali o'zlarini kamdan-kam hollarda himoya qilishga urinadilar. Chunki, ular bu davrda ko'proq mustaqil fikrlashga, o'z menliklarini bo'rttirib ko'rsatishga, o'zlarini boshqalardan oz bo'lsada ustun ekanligini ko'rsatishga va shu yo'l bilan o'zlarini himoya qilishga moyil bo'ladilar. Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ko'rinadiki, ziddiyatli holatlarda har bir o'smirning o'z-o'zini himoya qilish haqida o'z tasavvuri va o'ziga xos, o'ziga mos individual uslubi mavjud.

Testning asosiy funktsiyasi muallif fikricha shaxsning nizoli vaziyatdagi harakat usulini aniqlash bilan chegaralanib qolmasdan, ko'proq nizoli vaziyatlarni boshqarish uchun ham xizmat qilishi lozim. Litseyda o'tkazgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra nizoli vaziyatlarda yaqqol **raqobatchilik** usulini tanlovchilar 20 foizni;

- **hamkorlik** tarafdorlari - 25 foizni;

- **kelishuvchanlik** tarafdorlari - 20 foizni;

- **nizodan qochishga intiluvchilar** - 55 foizni;
- **moslashuvchilar** - 40 foizni tashkil etdi.


Nizoli vaziyatlardagi harakat usulini tanlash testi natijalarini yanada chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, 45 o'quvchi orasida 20 foizni tashkil etuvchi raqobatchilik usulini tanlovchilar ushbu vaziyatlarda boshqalarga ziyon keltirib bo'lsa ham o'z qiziqish va manfaatlarini qondirishga harakat qildilar. Albatta bu o'quvchilar bilan tushuntirish ishlarini amalga oshirib, nizoli vaziyatdagi bunday harakat usuli o'zaro munosabatlarning buzilishiga tasir qilishini, chunki, bunday harakatda ikkinchi tomon (nizodagi muxolif) norozi bo'lib qolishini uning ehtiyojlari anglatish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday vaqtda xuddi shu o'quvchilar o'qituvchilar bilan nizoga kirishish orqali o'rtoqlari orasida obro'ga ega bo'lishga intiladi. Bunday vaziyatdagi nizolarni hal qilishda o'qituvchining to'g'ri usullarni tanlab bilishi o'ta muhim bo'ladi.

Raqobat usulini tanlanishi nizoli vaziyatda faqatgina bir tomon yutishini, ikkinchi tomon esa doimo yutqazishni bazida esa, ikki tomon ham yutqazishni etiborda tutishi lozim bo'ladi. Nizodan chetda bo'lishga (qochishga) intiluvchilar guruhda to'rt dan bir qismni tashkil etdi, bu holat meyorini bildiradi. Bunda guruh o'quvchilarning har to'rt kishidan bittasi nizoli vaziyatdan chetga bo'lishga intilar ekan. Lekin bu o'quvchilar o'z oldilariga qat'iy maqsad qo'yolmaydilar yoki biror maqsad sari izchil harakat qilishning uddasidan chiqa olmaydi. Agar ular o'zlari biror qarorga


kelishi lozim bo'lgan vaziyatga duch kelib qolishsa sarosima va bezovta holatga tushib, qarorga kelishni, mas'uliyatini bo'yniga olishni boshqalarga qo'yib berishga harakat qilishadi. Nizoli vaziyatdagi bunday harakat usulini nizo bartaraf etilmay qoladi va u o'quvchilarning boshqa vaziyatdagi harakatiga davom etishi mumkin. Guruhdagi nizolarni to'g'ri hal etilishiga olib keluvchi hamkorlik usulini tanlovchilar 25 % ni tashkil etdi. Bu o'quvchilar bilan nizoli vaziyatlarni hal etish o'qituvchi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki bu shaxslar har ikkala tomonning ehtiyojlarini qondiruvchi qarorga kelish tarafdorlaridir. Har bir tajribali o'qituvchi o'z o'quvchilarini nizoli vaziyatlarni hal etishning xuddi shu

usuliga mo'ljall berishi, o'zaro tushunishning optimallashtirishiga yordam beradi. Har qanday nizoli vaziyatlarda o'qituvchi hamkorlik asosida vaziyatni hal etishga harakat qilishi, o'quvchilarni ham shunday yo'l tutishga o'rgatadi hamda o'qituvchiga nisbatan hurmatlari ortadi.

Yaqqol ifodalangan harakat usullarining foiz hisobidagi ko'rinishi



Yaqqol ifodalangan harakat usullarining ball hisobidagi ko'rinishi



Nizoli vaziyatlardagi o‘quvchilarning harakat usulini aniqlash orqali bu harakat usullaridan qaysi biri sermahsul qaysi biri buzuvchi ekanligini bilish va sermahsul harakat usulini rivojlantirish yo‘llarini tanlash imkonini beradi. Litsey o‘quvchilari o‘rtasida ijobiy muloqotni tashkil qilish va nizolarni bartaraf etish uchun faqatgina Tomas metodikasidan foydalanish bilan cheklanib qolmasdan, **balki “Guruhdagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish”** metodidan ham foydalandik. Bu metodika 4 shkaladan iborat bo‘lib unda guruhdagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganiladi. Metodikaning **I shkalasi “Guruh azolariga shaxsiy munosabat”** deb nomlanadi. Bunda har bir o‘quvchining guruhda "o‘z do‘stim" deb hisoblaydigan kishilari bor, o‘quvchi tez-tez muomalada bo‘lib turadigan kishilari bor. Hech qanday munosabatda bo‘lmaydigan kishilar bor. O‘quvchi uchun salbiy munosabatda bo‘ladigan kishilar bor. Bu shkala guruh o‘quvchilarini ularning har biriga qanday munosabatda bo‘lishiga qarab etti bandga bo‘linadi.

II shkala - guruhdagi do‘stlik va maqbullik to‘g‘risidagi ustun fikr deb nomlanadi. Bunda har o‘quvchi guruh haqida fikriga mos keladigan fikrni

belgilaydi.

III shkala - guruhdagi o‘zaro yordam to‘g‘risida ustun fikr deb nomlanadi. Bu shkala har o‘quvchining o‘zining fikriga mos keladigan fikrni belgilaydi.

IY shkala - guruhdagi o‘zaro masuliyat haqidagi ustun fikr deb nomlanadi. Bu shkalada ham II va III shkaladagi har bir o‘quvchi o‘z fikriga mos keladigan fikrni belgilaydi. Bu metodikani bajarish uchun har bir o‘quvchi shkalalarni o‘rganib chiqadi va javoblarning anonim bo‘lishini taminlash uchun o‘z sinfining tavsifnomasini tuzib chiqadi. I shkalani ishlash chog‘ida har bir o‘quvchi ijobiy munosabat bildirgan (1,2,3 bandlar) u befarq qaralagan (4-band) va salbiy munosabatda bo‘lgan shaxslar (5,6,7, bandlar) miqdori hisoblab chiqiladi. So‘ngra munosabatlar % kategoriyalari bo‘yicha o‘quvchilarning taqsimlanishi % bilan hisoblab chiqiladi. (sinfdagi o‘quvchilar soni 100 % deb qabul qilinadi.) Foizlar yakuniy bandga yoziladi va mazkur o‘quvchi uchun sinfga nisbatan ustun bo‘lgan munosabat belgilab chiqiladi.

I, II, III, IV bandlar maxsus ishlov berishni talab qilmaydi. Ularga faqat aniq badda + alomatini qo‘yish va tegishli ballning ostiga chizib qo‘yish kerak bo‘ladi. Har bir shkala uchun guruhlar ko‘rsatgichlari, ustun munosabatlar do‘stlik va maqbullik, o‘zaro yordam va o‘zaro javobgarlik ko‘rsatgichlari hisoblab chiqiladi. Barcha shkalalar yordamida olingan malumotlarni qiyoslab chiqish guruhdagi psixologik muhit haqida malum darajada xulosa chiqarish imkonini beradi.

SHunday qilib, biz ushbu metodika bo‘yicha litsey o‘quvchilari o‘rtasidagi munosabatlarni bilish uchun quyidagi natijalarni oldik.

I- shkala. Guruh a'zolariga shaxsiy munosabat.

№	O'quvchilarning ismi-sharifi	Ijobiy munosabat	Befarqlik	Salbiy munosabat
1	A.I	20 %	0 %	15,5 %
2	B.G.	5 %	5 %	10 %
3	B.S.	5 %	5 %	15 %
4	B.N.	20 %	0 %	5 %
5	K.D.	15 %	5 %	0 %
6	S.N.	5 %	0 %	10 %
7	E.O.	10 %	0 %	15 %
8	SH.O.	20 %	0 %	0,5 %
9	I.L.	50 %	0 %	10 %
10	O.P.	30 %	10 %	0 %
11	S.L.	10 %	10 %	0 %
12	A.F.	10 %	0 %	0 %
13	K.Z.	30 %	0 %	0 %
14	K.B.	15 %	0 %	0 %
15	O.E.	10 %	15 %	0 %
16	T.L.	25 %	0 %	10 %
17	N.K.	15 %	0 %	15 %
18	O'A	15 %	0 %	15 %
19	X.M.	35 %	5 %	10 %
20	Q.D	30 %	0 %	0 %

I shkala bo'yicha olingan natijalarda ijobiy munosabatlar 100 % imkoniyatdan 16,6 % ni tashkil qildi. Bu juda past ko'rsatgich bo'lib, o'quvchilarni o'zaro ijobiy munosabatlarini yaxshi emasligidan dalolat beradi. Qolaversa, tajribada 7 % o'quvchi o'zaro salbiy munosabatlarini ochiq etirof etishgan.

4-jadval

II - shkala. Guruhdagi do'stlik va maqbullik to'g'risidagi ustun fikr.

№	O'quchilarning ismi- sharifi	6	5	4	3	2	1
1	A.I	-	-	+	+	+	+
2	B.G.	+	+	-	+	-	-
3	B.S.	-	+	-	+	-	-
4	B.N.	-	-	-	+	+	-
5	K.D.	+	+	-	+	-	-
6	S.N.	-	+	-	+	-	-
7	E.O.	-	-	-	+	+	-
8	SH.O.	-	+	-	-	+	-
9	I.L.	-	-	-	+	-	-
10	O.P.	-	+	-	+	-	+
11	S.L.	-	-	-	+	-	+
12	A.F.	-	+	-	-	+	+
13	K.Z.	-	+	-	+	-	+
14	K.B.	-	+	-	+	-	-
15	O.E.	+	+	-	+	-	-
16	T.L.	+	+	-	+	-	-
17	N.K.	+	+	+	-	-	-
18	O'.A	-	+	-	+	-	-
19	X.M.	-	-	-	-	+	+
20	Q.D	+	+	-	+	-	-
JAMI:		5	14	2	16	6	5

II shkala bo'yicha olingan natijalar esa guruhda janjallar kamligini va bu janjallar ixtilofli emasligini ko'rsatadi.

5–jadval

III - shkala. Sinfdagi o'zaroyordam to'g'risidagi ustun fikr.

№	O'quvchilarning ismi-sharifi	6	5	4	3	2	1
1	A.I	-	-	-	+	-	-
2	B.G.	-	-	-	+	+	-
3	B.S.	-	+	-	-	+	-
4	B.N.	-	-	+	-	-	+
5	K.D.	-	-	+	+	+	-
6	S.N.	-	-	-	+	+	-
7	E.O.	-	-	+	+	-	-
8	SH.O.	-	-	+	-	-	-
9	I.L.	-	-	-	+	-	-
10	O.P.	-	-	+	-	-	-
11	S.L.	-	-	+	-	-	-
12	A.F.	-	-	-	+	+	+
13	K.Z.	-	-	+	-	-	-
14	K.B.	-	+	+	-	-	-
15	O.E.	-	-	-	+	-	-
16	T.L.	-	-	-	+	+	+
17	N.K.	-	-	+	-	-	-
18	O'A	-	+	+	+	+	+
19	X.M.	-	-	+	-	-	-
20	Q.D	-	+	-	-	-	-
JAMI:		0	4	11	10	7	4

III shkala bo'yicha aniqlaganimizda esa bu guruhdagi o'quvchilar faqat iltimos qilgandagina bir-birga yordam berishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda o'zaro yordam, bir-birga etibor shakllanmagan. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, guruhda jipslashuv yo'q.

Tomas uslubi asosida o'rganilgan ziddiyatli holatlarda o'smir xulq-atvori uchun xarakterli bo'lgan individual uslub yondashuviga mos xususiyatlarning (1. Bahs-munozara, 2.Xamkorlik, 3. Kelishuv-kompromiss, 4.o'zini chetga olish, 5. o'zini moslashtirish) namoyon etilishicha oid ko'rsatgichlar ko'lamining tadqiq qilinishi o'smirlik davri uchun yangi empirik ma'lumotlarni tadqiq qilish imkoniyatini yaratdi. Har bir o'smir (respondent) bilan tadqiqot maqsadiga mos metodika talablari asosida individual ishlar olib borildi. Kontent-tahlil uchun qo'shimcha savolnomalar va anketa so'rovnomalari o'tkazilib uning natijalari umumiy metodika natijalariga mos ravishda tadqiq qilindi. Ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi esa matematika-statistik mezonlar bilan tekshirildi va ma'lum xulosalar qilindi.

2.3. O'quvchilar orasida ijobiy muloqotni yuzaga keltirish va shakllantirish masalalari.

Psixologiyada insonlar o'tasida ijobiy munosabatni yuzaga keltirish va shakllantirish masalalari oldindan ko'rib kelingan va bundan keyin ham bu masala ko'riladi. Muloqot bu insonlarning birgalikdagi faoliyati mobaynidagi o'zaro xabar almashishi, o'zaro birgalikdagi harakati va o'zaro tasiriga aytiladi. Sof so'zlar yordamida 20-25 % xabar tovushining ohangiga qarab esa 30-35 % qolgani esa mimika asosida bo'ladi. Insonga anglanmagan holda salom berish ijobiy emotsiyani hosil qiladi. Insonlarga tasir qilish uchun asosan ularning ong osti sohasiga etibor qaratishimiz lozim. Bunday muloqotda birinchidan emotsional ahamiyatga ega bo'lgan signal jo'natish kerak; Ikkinchidan, bu ahamiyatli signal u shaxs uchun ijobiy xarakterga ega bo'lsin; Uchinchidan, bu holatni u anglamay qolsin. Umuman olganda ijobiy muloqot hamma joyda kerak va zarur. Lekin har doim ham ijobiy muloqotda bo'la olamizmi? Yo'q albatta. Har bir inson uchun muloqot qilish qonun qoidalari bolalik davridan boshlab shakllana boradi. Bu muloqotni shakllantirish ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar va psixologlarning vazifasidir. Demak, shuni aytish kerak ekanki, muloqot qila olmaydigan insonlar bir-birlari bilan tez-tez nizolashib turishar ekan, buning sababi, bir-birini tushunmaslik va to'g'ri muloqot qila olmaydigan insonlar bir-birlari bilan tez-tez nizolashib turishar ekan. Buning sababi bir-birlarini tushunmaslik va to'g'ri muloqotga kirisha olmasligidandir. Ayrim oilalarda ota-onalarning noto'g'ri tarbiyasi tufayli ham bolalar o'rtasida kelishmovchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Buni tuzatish har bir maktabdagi va litseydagi psixologlarning vazifasi hisoblanadi. Agar biz nizoli vaziyatda o'spirinlik davrini oladigan bo'lsak, bu davr milliy tarbiyani shakllantirishning eng qulay davri hisoblanadi. Bu davrda bola intizomga, bilimga, yashab bilishga, tarbiyaga, yangiliklar olishga chanqoq bo'ladi. U o'zini mustaqil ravishda yangi hayotga tarbiyalay boshlaydi. O'spirinlikda bola atrof-muhit qonuniyatlarini bilishga intiladi, ezgulik va yovuzlikni farqlay boshlaydi.

XULOSA

Ta'lim-tarbiya jarayonida zarur xulq-avor va odatni shakllantirish ko'p jihatdan o'qituvchining bilimi, dunyoqarashi va albatta darsda yangi pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida va maqsadli qo'llay olishiga bog'liq bo'ladi. Ammo ushbu ijtimoiy zarur fazilatlar o'z-o'zidan normadagidek shakllanmaydi. Ularni shakllantirish uchun amaliyotchi psixologlar maxsus psixodagnostik va psixokorreksion tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

Psixodagnostik va psixokorreksion ishlarni tashkil etish psixologlardan bilim, tajriba va malakalarni talab etadi. Tadqiqotimizda olib borilgan psixodagnostik va psixokorreksion ishlar asosida sinalluvchilarning ijtimoiy fazilatlarini tashxis qilish orqali o'rganib, ularda zarur sifatlarni shakllantirishning psixologik imkoniyatlari mavjudligi isbotlandi.

Tavsiyalar

1. Shaxsning faoliyatida muhim rol o'ynovchi xulq atvor va odatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy fazilatlar tizimini ishlab chiqish.
2. Shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini shakllantirishga mo'ljallangan psixologik trening dasturlarini yaratish
3. O'yin metodlarining zarur ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishda o'yin metodlarining ahamiyati yuzasidan maqolalar chop ettirish
4. Psixologik treninglarni qo'llashni ommaviylashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: 2012. 210 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2009. 176 bet.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1998. 62 bet.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: Sharq, 1999. 182 bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent “O‘zbekiston”.-2008.
6. Prezident I.A. Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi (17.02.2012. 22:55)
7. Karimov I.A. Mustaqillik biz uchun-o‘zligimizni anglash, yurt tinchligi va barqarorligining, inson manfaati, erkinligi va farovonligining, biz ko‘zlagan demokratik jamiyat barpo etishning garovidir. “O‘zbekiston” T-2009.
8. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O‘qituvchi,1992. 60 bet.
9. Abu Rayxon Beruniy, Ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida.-T.: 1992. 116 bet.
10. Bazilevich T.F. Razvitie kontseptsii selostnoy individualnosti. V sb.: V.D Nebilitsin. Jizn i nauchnoe tvorchestvo». M., Nauka, 2003.
11. Gamezo A. «Atlas po psixologii» Moskva 2001y.
12. Davletshin M. G. «Umumiy psixologiya» T-2000y.
13. Nemov R. S. «Psixologiya» T. 1.M. 1998y.
14. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
15. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: O‘qituvchi. 1994.
16. Karimova V.M. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. 2002.
17. Karimova V., Akramova F. Psixologiya / Ma’ruzalar matni. T., 2002.
18. Karimova V.M. Targ‘ibotning psixologik uslublari. - T.: Ma’naviyat. 2000.
19. Karimova V.M. Ota-ona kasbi - baxt kaliti. T., 2002.

20. Karnegi D. Kak zavoevat družey i okazivat na nix vliyanie. - M.: Progress. 1990.
21. Nemov R. S. «Psixologiya» T. 1.M. 1998y
22. Oila psixologiyasi . prof. G'.SHoumarov tahriri ostida. - T.: SHarq NMK. 2001
23. Petrovskiy I. V. «Umumiy psixologiya» «O'qituvchi», 1992y.
24. G'oziev E. Psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: «O'qituvchi», 1992. - 222 b.
25. G'oziev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1 va 2 tom. Toshkent-2002y.

Internet manbalari:

1. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti.
2. <http://www.edunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.
3. <http://www.edu.uz> – O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb sayti.
5. <http://www.lib.psichology.msu.ru>
6. <http://www.lib.psichology.ru>
7. <http://www.lib.psichology.rin.ru>

